

G'O'RO'G'LINING SAFARI-XALQ OG'ZAKI IJODINING GO'ZAL IFODASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 14 maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda «Go'ro'g'lining safari» nomli kitobni chop etdi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi dostonlar yuzdan oshadi. Turkumning katta bir qismini Go'ro'g'lining o'zi hamda Avazxon, Nurali haqidagi dostonlar tashkil etadi. Bu dostonlarda ko'proq Avaz va uning farzandlari, Ahmad sardor o'rtasidagi azaliy ziddiyatlar haqida hikoya qilinadi. Shuning uchun ham "Malla savdogar" va "Go'ro'g'lining safari" qaysidir darajada bir-birini to'ldiruvchi dostonlar hisoblanadi.

"Malla savdogar" dostonining hozirgacha bir necha variantlari nashr etilgan. Bu variantlar har bir baxshining dunyoqarashi, epik tafakkuri, mahorati jihatidan bir biridan farq qiladi.

O'zbekiston xalq baxshisi Qahhor baxshi Rahimovdan yozib olingan "Malla savdogar" hamda ilk marta nashr yuzini ko'rayotgan "Go'ro'g'lining safari" dostonlari o'z ijro usuli, ohangi bilan boshqa dostonlardan farqlanib turadi. Ushbu dostonlar bugungi jonli ijro jarayonidan yozib olinganligi, unda qahramonlik, vatanparvarlik g'oyalari yuksak pardalarda kuylangani muhim ahamiyatga ega.



УЎК: 821.512.133-32
КБК: 84(5Ў)6
М 71

М 71 **Гўрўглининг сафари** [Матн]: *Достонлар*. Айтувчи:
Ўзбекистон халқ бахшиси Қаҳҳор Раҳимов. – Тошкент:
«Adabiyot» нашриёти, 2022. – 328 б.

**Ёзиб олувчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар
муаллифлари:**

Жаббор Эшонқулов – *филология фанлари доктори, профессор*
Абдиолим Эргашев – *филология фанлари доктори*

Масъул муҳаррир:

Абдумурод Тилолов – *филология фанлари номзоди, доцент*

Ўзбек халқ оғзаки ижодида “Гўрўгли” туркумига кирувчи достонлар юздан ошади. Туркумликнинг катта бир қисмини Гўрўглининг ўзи ҳамда Авазхон, Нурали ҳақидаги достонлар ташкил этади. Бу достонларда кўпроқ Аваз ва унинг фарзандлари, Аҳмад сардор ўртасидаги азалий зиддиятлар ҳақида ҳикоя қилинади. Шунинг учун ҳам “Малла савдогар” ва “Гўрўглининг сафари” қайсидир даражада бир-бирини тўлдирувчи достонлар ҳисобланади.

“Малла савдогар” достонининг ҳозиргача бир неча вариантлари нашр этилган. Бу вариантлар ҳар бир бахшининг дунёқараши, эпик тафаккури, маҳорати жиҳатидан бир-биридан фарқ қилади. Биз муҳтарам ўқувчиларга Ўзбекистон халқ бахшиси Қаҳҳор бахши Раҳимовдан ёзиб олинган “Малла савдогар” ҳамда илк марта нашр юзини кўраётган “Гўрўглининг сафари” достонларини тақдим этмоқдамиз. Бу достонлар халқона қадриятларни акс эттириши, мардлик ва жасоратни улуглаши билан ажралиб туради.

*Китоб Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси
ҳомийлигида чоп этилди.*

ISBN 978-9943-7658-3-2

© “ADABIYOT”, 2022